



O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI QURILISH VAZIRLIGI  
«SHAHARSOZLIK HUJJATLARI EKSPERTIZASI»  
DAVLAT UNITAR KORXONASI

Жиззах вилояти

130100, Jizzax shahri, Sh.Rashidov ko'chasi, 1-uy, Tel. +99878 771-70-15, Faks: +99878 771-70-15, E-mail: jizzah\_expertiza@mail.ru [www.ekspertiza.mc.uz](http://www.ekspertiza.mc.uz) [www.mc.uz](http://www.mc.uz)

Holati: Ijobiy

Direktor: Kulmuradov Yusup Baxriyevich

Sana: 28-12-2021 yil



**Yig'ma ekspert xulosasi № 29662**

**Obyekt nomi** «Jizzax viloyati Arnasoy tumani Oltin vodiy MFY da (tadbirkorlik subektlari tomonidan) qurilayotgan uy-joylarning ichimlik suvi ob'ekti»

**Buyurtmachi** - «KISHLOK KURILISH INVEST» MCHJ IK

**Bosh loyihachi** - «Qishloq qurilish loyiha» MCHJ

**Litsenziya** 29.06.2020 yil AL-001087 O'zbekiston Respublikasi Qurilish vazirligi

**Moliyalashtirish manbai** - Islom taraqqiyot banki

**Bosh pudratchi** - Tender tanlovi asosida

**Qurilish turi** Yangi qurilish.

**Murojaat raqami:** № 24205

**1. Loyihalash uchun asos**

1.1. O'zbekiston respublikasi vazirlar mahkamasining 2021 yil 17 sentabrdagi №132 sonli rayosat majlisi bayoni.

1.2. Jizzax viloyat qurilish bosh boshqarmasi, Jizzax suv ta'minoti MChJ, «KISHLOK KURILISH INVEST» MCHJ IK tomonidan 2021 yil tasdiqlangan loyixalash topshirig'i.

1.3. Jizzax suv ta'minoti MChJ tomonidan 2021 yil 12 aprelda berilgan №05/384 sonli "Texnik shart"

1.4. Jizzax viloyat qurilish bosh boshqarmasining 08.04.2021 yildagi 1708-1708201-16448-sonli Arxitektura -rejalashtirish topshirig'i.

1.5. Jizzax viloyat qurilish bosh boshqarmasi loyiha-smeta hujjatlarini kelishish bo'yicha Arxitektura va shaharsozlik kengashi 16.04.2021 dagi 13 -sonli yig'ilish bayoni

1.6. Ob'ekt uchun muxandislik-geologik sharoitlar bo'yicha «O'ZGASHKLITI» MCHJ tomonidan 2021 yil mart oyida bajarilgan texnik xulosa.

1.7. «KISHLOK KURILISH INVEST» MCHJ IK va «Qishloq qurilish loyiha» MCHJ o'rtasidagi loyiha - smeta xujjatlari bajarish uchun 2021 yildagi 04-B-5/2021-sonli shartnoma.

**2. Ekspertiza uchun taqdim etilgan materiallar**

2.1. Ishchi chizmalar.

2.2. Smeta xujjatlari.

### 3. Loyiha yechimlarining qisqacha mazmuni

Bosh reja buyicha qurilish maydonchasida 4-ta 5-qavatli 20 xonadonlik turar joy uylarini ichimlik suv bilan ta'minlash ishlari rejalashtirilgan. Ichimlik suv quvurlari uchun transheya qazishda mavjud yer osti kommunikatsiyalarni kesib o'tish joyida yer ishlari qo'lda bajariladi.

### 4. Loyihalanayotgan ob'ektning muhandislik ta'minoti:

Ichimlik suv V1 tarmog'i yer yuzasidan 1,0-1,5m chuqurlikda kuduq ichida suv uskunolari urnatilgan. Suv quvurlari polietilen PE SDR 17.6 GOST 18599-2001.

### 5. Loyihani kelishilganligi to'g'risida hujjatlar.

5.1. Jizzax viloyat qurilish bosh boshqarmasi loyiha-smeta hujjatlarini kelishish bo'yicha Arxitektura va shaharsozlik kengashi 16.04.2021 dagi 13 -sonli yig'ilish bayoni

5.2. Jizzax viloyati Arnasoy tumani Oltin vodi MFYda qurilayotgan uy-joylarning ichimlik suvi ob'ektini barcha mutasaddi tashkilotlar kelishuvdan utkazgan sxemasi.

5.3. Loyiha-smeta xujjatlari urnatilgan tartibda ekspertiza xulosasi bilan birgalikda buyurtmachiga topshiriladi va buyruq bilan tasdiqlanadi.

### 6. Ekspertiza natijalari.

6.1. Loyiha-smeta xujjatlari ekspertizaga buyurtmachining e'tirozlarisiz taqdim qilindi.

6.2. Qurilish, montaj ishlarini bajarilishida kaytarilgan materiallar (vozvrat materialov) qiymati buyurtmachi va pudratchi tomonidan aniklansin.

6.3. Ob'ektning qurilish narxi "Qurilish iqtisodiyoti instituti" MChJ tomonidan ishlab chiqilayotgan joriy narxdagi kataloglar, buyurtmachi taqdim etgan naxlar, birja va amaldagi urtacha olingan (usrednyonnye) narxlarni hisobga olgan holda ishlab chiqilgan va ekspertizaga taqdim qilingan.

6.4. Smeta hujjatlarini ko'rib chiqish jarayonida aniqlangan kamchiliklar qisman bartaraf etildi.

6.5. Buyurtmachi tomonidan smeta qiymati, buyurtmachining boshqa harajatlari va 15% QQS bilan hisoblaganda **33 800,749** ming so'm taqdim etilgan. Smeta hujjatlarida ko'rsatilgan kamchiliklar bartaraf etilgandan so'ng, ya'ni qurilish materiallarning narxlari o'zgartirish natijasida qurilish ta'mirlash ishlari, buyurtmachining boshqa harajatlari va QQS bilan birga **139,66** ming so'mga kamaytirildi.

6.6. Ekspertiza natijalarini hisobga olgan holda "**Jizzax viloyati Arnasoy tumani Oltin vodi MFY da (tadbirkorlik subektlari tomonidan) qurilayotgan uy-joylarning ichimlik suvi ob'ekti**" bo'yicha tayyorlangan smeta hujjatlarini kelgusida kelishish hamda tasdiqlash uchun buyurtmachining boshqa harajatlari va 15 % QQS bilan hisoblaganda umumiy miqdorda **33 661,089** ming so'm tavsiya etiladi. Shu jumladan:

- qurilish- montaj ishlari - **29 113,854** ming so'm;

- qurilishni sug'urtalashga sarflangan xarajatlar 0,32% - **93,164** ming so'm;

- qo'shimcha qiymat solig'i 15% - **4 381,053** ming so'mni tashkil etgan.

- buyurtmachining boshqa harajatlari - **73,018** ming so'mni tashkil etgan.

6.7. Umumlashtirilgan smeta hisobida ishchi-quruvchilar miqdori 151,544 odam/soat tashkil etilgan.

6.8. Ishchi quruvchilarning o'rtacha bir soatlik ish xaqi "Qurilish iqtisodiyoti instituti" MChJ chiqarayotgan 2021-yil II chorak (kvartal) katalog asosida  $10\ 097,96 \times 1,12 = 11\ 309,7152$  so'm

ijtimoiy sug'urtaga ajratma 12 % qabul qilingan. (Ijtimoiy sug'urtaga ajratma foizi pudratchining haqiqiy harajatlari bo'yicha buxgalteriya hujjatlari asosida amalga oshiriladi).

6.9. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 11.06.2003-yildagi №261 qarori bilan tasdiqlangan "Qurilish ob'ektlari narxini joriy shartnoma narxlarida aniqlash tartibi to'g'risida vaqtinchalik qoidalar"ga va ShNK 4.01.16.09 ga binoan qurilishning dastlabki narxi tavsiyaviydir. Ob'ektning shartnomaviy joriy narxi tanlov savdolari natijalariga ko'ra belgilanadi hamda buyurtmachi va pudratchi o'rtisida shartnoma tuzishga asos bo'ladi.

6.10. O'zbekiston Respublikasi Shaharsozlik kodeksi 4-bob 23,24,25-moddalari hamda O'zbekiston Respublikasi Vazirlar mahkamasining 17.09.2021 yildagi №579-sonli qarorining 1-ilova 3-bob 29-bandiga asosan "Ekspert tashkilotiga taqdim etilgan shaharsozlik hujjatlarining sifati, dastlabki ma'lumotlarning xaqqoniyligi va qabul qilingan loyixa yechimlari bo'yicha buyurtmachi hamda loyiha tashkiloti javobgardir".

6.11. Yakuniy harajat buyurtmachi va pudratchi tomonidan qurilish tugagandan so'ng, haqiqiy (ijro hujjatlari) nazorat natijalari asosida aniqlanadi.

## **7. Xulosalar.**

7.1. " **Jizzax viloyati Arnasoy tumani Oltin vodi MFY da (tadbirkorlik subektlari tomonidan) qurilayotgan uy-joylarning ichimlik suvi ob'ekti**" ishchi loyiha kelgusida ko'rib chiqish va tasdiqlashga tavsiya etiladi.

**Bosh mutaxassis:** SHERKULOV ASKAR XUDAYBERDIEVICH